

O'QUVCHILARDAGI QIZIQISHLARNING PSIXOLOGIK TAVSIFI

Eshbekova Sanobar Kabulovna
Sirdaryo viloyati Boyovut
tumani 30-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur mavzuda o'quvchilardagi qiziqish tushunchasi, uning psixologik xususiyatlari, shakllanish bosqichlari hamda ta'lim jarayonidagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: qiziqish, motivatsiya, o'quvchi, psixologiya, ta'lim, ehtiyoj, faoliyat.

KIRISH

O'quvchilardagi qiziqish — bu shaxsning muayyan faoliyatga, predmetga yoki sohaga nisbatan barqaror ijobiy munosabati va ichki ehtiyojdir. Qiziqish o'quvchining o'qishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi va uning bilim olish jarayonini faollashtiradi.

Psixologiyada qiziqish shaxs faoliyatining muhim motivlaridan biri sifatida qaraladi. U o'quvchini yangi bilimlarni izlashga, mustaqil fikrlashga va ijodiy yondashishga undaydi. Qiziqish bo'lmagan joyda o'qish jarayoni majburiy xarakterga ega bo'lib qoladi.

O'quvchilardagi qiziqishlar turli ko'rinishda bo'ladi. Ular bevosita qiziqish (faoliyatning o'ziga bo'lgan qiziqish) va bilvosita qiziqish (natija yoki kelajakdagi foydaga qaratilgan qiziqish) turlariga bo'linadi.

Qiziqishning shakllanishiga bir nechta psixologik omillar ta'sir qiladi. Birinchidan, o'quvchining ichki ehtiyojlari va qobiliyatlari muhim rol o'ynaydi. Ikkinchidan, o'qituvchi va ota-onaning munosabati ham qiziqishning rivojlanishiga ta'sir qiladi. Uchinchi omil esa ijtimoiy muhit va tengdoshlar ta'siridir.

Ta'lim jarayonida qiziqishni rivojlantirish uchun o'qituvchi darsni qiziqarli, interaktiv va hayotiy misollar bilan boyitishi lozim. Rag'batlantirish, ijobiy baholash va muvaffaqiyatni his qildirish ham muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish qiziqishni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Har bir o'quvchiga mos yondashuv ularning faol ishtirokini ta'minlaydi.

O'quvchilardagi qiziqishlarning psixologik tavsifi ularning ta'lim jarayonidagi faolligi va muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Qiziqishni to'g'ri shakllantirish barkamol shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Qiziqish shaxsning muhim psixologik jabhalaridan biri hisoblanib, unda insonning individual xususiyati bevosita mujassamlashtiriladi. Qiziqish – insonlarning

dunyoqarashi, e'tiqodlari, ideallari, ya'ni uning oliy maqsadlari, ezgu niyatlari, orzu-umidlari bilan bevosita muhim rol o'ynaydi hamda ularning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Qiziqish bilimlarni ongli, puxta, barqaror, anglagan holda o'zlashtirishda, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda, shaxs qobiliyati, zehni, uquvchanligini rivojlantirishga, olamni mukammalroq tushunishga, bilim saviyasining kengayishiga yordam beradi.

Qiziqish motiv singari borliqning mo'jizakor tomonlarini bilishga, fan asoslarini egallashga faoliyatning turli-tuman shakllariga nisbatan ijodiy yondashishni vujudga keltiradi, mehnatga, ta'limga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishni shakllantiradi, har qaysi yakkahol (individual) shaxsda ishchanlik, g'ayrat-shijoat, egilmas irodani tarkib toptirishga puxta psixologik shart-sharoitlar yaratadi.

Qiziqishning psixologik mohiyatidan kelib chiqqan holda yonda-shilganda, qiziqish insonda intilish, faollik, ichki turtki, ehtiyojni ro'yobga chiqarish manbai rolini bajaradi. Jahon psixologiya fanining yirik namoyandalari shaxsning qiziqishini uning yaxlitruhiy dunyosi bilan, binobarin, odamning aqliy faoliyati, bilish jarayonlari, irodasi, xarakteri, temperamenti, hissiyoti, qobiliyati bilan, umuman olganda inson tuzilishining barcha qirralari bilan bog'liqtarzdaharakat qilganlar. Qiziqish muammosi psixologik nuqtai nazardan N.A.Ribnikov, N.F.Dobrinin, N.D.Levitov, M.F.Belyaev, L.A.Gordon, L.I.Bojovich, N.G.Morozova, M.G.Davletshin, M.V.Vohidov, V.A.Tokareva, E.G.G'oziev va boshqalarning nazariy metodologik xususiyatga ega bo'lgan asarlarida hamda maxsus eksperimental tadqiqotlarida rivojlantirildi.

Hozirgi zamon psixologiyasida qiziqish ob'ektiv borliqning insonlar ongiga sub'ektiv tarzda aks etishlaridan biri sifatida tan olinadi. Qiziqish shaxsning muayyan voqelikdagi, ma'lum vaziyatdagi turli narsa va hodisalarga tanlab munosabatda bo'lishida, insonning o'ziga xos qaror qabul qilishida, o'zini o'zi nazorat eta bilishida, maqsadga intiluvchanligida, yuzaga kelgan ob'ektiv va sub'ektiv to'siqlarning yengishida ifodalanadi.

Psixologiya fanining yirik namoyandalari ta'limotiga ko'ra, qiziqish inson ehtiyojlari negizida yuzaga keladi va u muayyan ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarda shakllanib boradi. Qiziqish shaxsning turmush tarzi, faoliyati hamda ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etishi jarayonida mustahkamlanadi va rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, qiziqish faqat alohida psixik jarayon emas, balki his-tuyg'u, iroda, ong va boshqa psixik holatlarning murakkab tizimli birligidan iborat bo'lgan ruhiy hodisadir.

Qiziqishning psixologik mohiyatini tushunishning birinchi jihati — uning anglanishi va tushunilishi bilan bog'liqdir. Shaxs qiziqish ob'ektini anglab, uning natijasini tasavvur qila olgandagina atrofdagi narsa va hodisalarga ongli va tanlab

munosabatda bo‘ladi. Biroq bu jarayon birdaniga yuzaga kelmaydi, balki bilish jarayonlarining rivojlanishi, shaxsiy xususiyatlar va individual tafovutlar asosida shakllanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, qiziqish faqat intellektual jarayon emas, balki undan kengroq psixik hodisadir.

Ikkinchi jihat shundaki, qiziqish his-tuyg‘ular va emotsional holatlar bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Emotsiyalar va kayfiyat shaxsning muayyan faoliyatga bo‘lgan intilishini kuchaytiradi, uni faol harakatga undaydi va maqsadga yo‘naltiradi. Qiziqish qondirilganda shaxsda ijobiy hislar, ruhiy qoniqish va lazzatlanish holati yuzaga keladi. Aksincha, qiziqish amalga oshmasa, frustratsiya holati paydo bo‘lishi mumkin.

Uchinchi jihat — qiziqish iroda jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. Maqsad sari intilish, qiyinchiliklarni yengish va qat’iy qaror qabul qilish qiziqishni mustahkamlaydi hamda shaxsni faol harakatga undaydi.

To‘rtinchi jihat esa qiziqishning oliy nerv faoliyati xususiyatlari va temperament tiplari bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘lishidir. Ya’ni har bir shaxsning asab tizimi xususiyatlari uning qiziqishlarining kuchi, barqarorligi va yo‘nalishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Qiziqish murakkab psixologik hodisa bo‘lib, u ong, his-tuyg‘u, iroda va biologik asoslar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi hamda shaxsning faoliyat yo‘nalishini belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Qiziqishning nerv-fiziologik mexanizmlari to‘g‘risida mulohaza yuritilganda, dastavval rus olimi I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi ta’limotini ta’kidlab o‘tish joiz. Uning «bu nima?» refleksi, ya’ni orientirovka (mo‘ljal olish) refleksi qiziqish-ning moddiy negizini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

I P Pavlov va uning shogirdlaridan keyin P.K.Anoxin, N.A.Bernshteyn, B.M.Teplov, V.S.Merlin, V.D.Nebilisin va boshqalar insondagi qiziqishning nerv-fiziologik mexanizmlarini bosh miya katta yarim sharlari po‘stlog‘ida orientirovka refleksi negizida murakkab muvaqqat bog‘lanishlarning vujudga kelishidir, degan yo‘sin-da talqin qilmoqdalar. Qiziqishning moddiy asoslari o‘zaro in-duksiya qonuni, po‘stloqdagi optimal qo‘zg‘alish o‘chog‘i va dinamik ste-reotiplar (I.P.Pavlov), dominanta (A.A.Uxtomskiy), orientir mu-rakkab psixofiziologik hodisa ekanligi (Ye.N.Sokolov) va boshqalar bo‘lib hisoblanadi.

Hozirgi davrda qiziqish shaxsning individual-psixologik xususiyatidan iboratdir, degan xulosa odatiy narsaga aylanib qoldi. Shunga qaramasdan, ba’zi manbalarda qiziqish muayyan soha bo‘yicha to‘g‘ri mo‘ljal olishga, yangi omillar bilan tanishishga, voqelikni to‘la va chuqur aks ettirishga yordam beradigan motivdir, degan ta’rifga ham egadir. Shunga mutanosib tarzda qiziqish bilish jarayoni tusini kashf etadigan, ijobiy his-tuyg‘ularda yo‘naltirilgan ob’ekt bilan chuqurroq tanishishga, u

haqda ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lish, uning mohiyatini anglab yetishga nisbatan shaxsning istagida namoyon bo‘ladi, qabilida mulohazalar hukm suradi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, shaxsning ishtiyoqini qondirishga yo‘naltirilganligini aks ettiruvchi qiziqishni qondirilishi, hech qachon uning so‘nishini ifodalamaydi, aksincha, ob’ektning noma’lum qirralarini aniqlashga nisbatan intilish davom etaveradi. Shu bilan birga qiziqishlar bilishning, uning jarayonlari funksional holatining doimiy qo‘zg‘atuvchi mexanizmi sifatida vujudga keladi va aks ettirishda davom etadi.

Psixologiyada qiziqish mana bunday tiplarga ajratilishi mum-kin: 1) mazmuniga ko‘ra: shaxsiy va ijtimoiy; 2) maqsadiga binoan: bevosita va bilvosita;

3) ko‘lamiga qaraganda: keng va tor; 4) qizi-qishlar darajasi bo‘yicha: barqaror va beqaror va boshqalar.

Qiziqishning mazmun jihatidan o‘zaro tafovutlanishi quyidagilarda mujassamlashadi: bilish ehtiyojlarining ob’ektlari qaysilar, bilishning mazkur faoliyat maqsadi bilan mutanosibli, shaxsning yashayotgan muhitiga nisbatan munosabati kabilar. Shaxsda nimalarga nisbatan qiziqish uyg‘onadi, uningbilish ehtiyojlari ob’ek-ting ijtimoiy qiymati qanday ahamiyat kasb etadi? Insonning shaxsiy qiziqishi kelib chiqishiga ko‘ra birlamchi bo‘lishiga qaramasdan, u bir davrning o‘zida ijtimoiylik xususiyatini kasb etaveradi. Uning kasbiy faoliyatiga nisbatan qiziqishi oxir-oqibatda jamiyat uchun naf keltirishi, ravnaqi uchun qiymatlidir. Ijtimoiy xususiyatli qiziqishlarning paydo bo‘lishi shaxsiy ahamiyat kasb etish sari yetaklashi muqarrar. Chunki umumiylik (ijtimoiylik) bilan xususiylik (shaxsga oidlik) uyg‘unlashgan holda hukm suradi va ular bir bosqichdan boshqa bir bosqichga avtomatik ravishda o‘taveradi yoki ular doimo o‘rin almashtirib turishadi. Shaxs o‘z qiziqishi tufayli biron-bir narsani kashf etsa, individual ehtiyojini qondiradi, shuningdek, jamiyat, jamoa uchun ishlab chiqarishni takomillashtirishga bu narsa xizmat qiladi. Shu boisdan jamiyatning, jamoaning eng dolzarb vazifalaridan biri yoshlarning mustaqil, faol bilishga, ijtimoiy ahamiyatga moyillik mehnat faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg‘otishdan iboratdir. Toki ular da jiddiy, sermazmun, jami-yattomonidan rag‘batlantiriluvchi, mehr-muhabbatga sazovor qiziqishlar shakllansin.

Qiziqishning maqsad jihatidan farqi uning bevosita va bilvosita ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishini belgilaydi. Bevosita qiziqish voqelikdagi narsa va hodisalarning o‘ziga xos jozibasi, emotsional ta’sirchanligi hamda tashqi ta’sirlarga beriluvchanligi natijasida yuzaga keladi. Bunday qiziqish ko‘pincha o‘rganilayotgan ob’ektning mazmuni shaxs uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlarda paydo bo‘ladi. Psixologiyada bevosita qiziqish faoliyat maqsadini anglash bilan bog‘liq bilish ehtiyoji sifatida ham talqin qilinadi. Shu sababli ta’lim va mehnat jarayonida faqat emotsional jozibaga tayanish har doim ham yetarli bo‘lmaydi, balki ongli boshqariladigan bevosita qiziqishni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Bilvosita qiziqish esa faoliyatning ijtimoiy ahamiyati bilan shaxs uchun subyektiv ahamiyati mos kelganda yuzaga keladi. Bunda inson “bu meni qiziqtiradi” degan ichki xulosaga keladi va faoliyatni maqsadli ravishda davom ettiradi. Mehnat va ta’lim jarayonida aynan bilvosita qiziqish muhim rol o‘ynaydi, chunki u ongli ravishda boshqariladigan motivatsiyani shakllantiradi. Shu bois uni rivojlantirish uchun maxsus metod va treninglardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Qiziqishlar ko‘lami jihatidan ham bir-biridan farqlanadi. Ayrim shaxslarda qiziqish faqat bir sohaga yo‘naltirilgan bo‘lsa, boshqalarda u bir nechta sohalarni qamrab oladi. Qiziqishlarning kengligi yoki torligi o‘z-o‘zidan mutlaq ijobiy yoki salbiy baho berilmaydi, biroq barkamol shaxs shakllanishida keng qamrovli qiziqishlar muhim ahamiyatga ega.

Qiziqishlar darajasiga ko‘ra barqaror va beqaror turlarga bo‘linadi. Barqaror qiziqish uzoq muddat davomida saqlanib qoladigan, shaxs ehtiyojlari va psixologik tuzilmasiga singib ketgan qiziqishdir. U shaxsning qobiliyati rivojlanganidan darak beradi va diagnostik ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Barqaror qiziqishni aniqlash uchun shaxsning o‘qish va mehnat faoliyatidagi xatti-harakatlari hamda o‘z-o‘zini baholash jarayonlari tahlil qilinadi.

Barqaror qiziqish shaxsning irodaviy sifatlari, xarakteri va maqsadga intilish kuchi bilan uzviy bog‘liqdir. U uzoq davom etishi va faol ifodalanishi bilan ajralib turadi. Bunday qiziqishlar shaxsning psixologik tuzilmasiga singib, uning ehtiyojlari darajasiga ko‘tariladi hamda individual va ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Qiziqishlarning ba’zi holatlarda beqaror bo‘lishligi insonlarning yosh, jins, tipologik xususiyatiga bog‘liqdir. Bunday toifadagi odamlarda qiziqishlar g‘oyatda ehtirosli kechadi, biroqqisqa muddatli bo‘lishi mumkin. Masalan, bir vaktning o‘zida ular bir nechta fanlarga, tabiat hodisalariga qiziqadi, barcha narsaga ishtiyoq bilan kirishib, muammo mohiyatiga chuqur kirib bormasdan, boshqa holatlar bilan mashg‘ul bo‘lib ketadilar. Unday xususiyatli shaxslar mashg‘ulot-largatez kirishadi va shunday yo‘sinda so‘nib turadi ham. Qiziqishlar salohiyatli voyaga yetgan odamlarning, yoshlarning o‘z iste’dodlarini maqsadga yo‘naltirgan tarzda amalga oshishini ta’minlaydi. Shaxsdagi qiziqishlarni rivojlantirish va barqarorlashtirish uchun ularning negizini tashkil etadigan faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishga, maqsadga muvofiq ravishda shug‘ullanishga, mayl uyg‘otishga puxta zamin hozirlash zarur, toki qiziqishlar motiv, ehtiyoj, e’tiqod funksiyasini bajarishga aylansin. Shunday qilib, qiziqishlar, shaxs faoliyati asoslarining tanho yo‘nalishi emas, lekin uning eng muhim jihatidan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2018.

2. Karimova V.M. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. Davletshin M.G‘. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2017.
4. Shoumarov G‘.B. Psixologiya va shaxs tarbiyasi. – Toshkent: Sharq, 2016.
5. Rubinshteyn S.L. Osnovy obshchey psixologii. – Moskva, 1989.
6. Ziyo.net

